
Maqolangizni o'qidik...

Joriy yilning 02 iyul kuni O'zbekiston Milliy axborot agentligi - "uza.uz" saytida "Farg'onacha atama: "Я и Ты", "Теремок", "Молодец"..." sarlavhasi ostida maqola e'lon qilindi.

Shundan so'ng Farg'ona shahar hokimligining ishchi guruhi O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi qonuni ijrosiga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadida masalani joyiga chiqib, bevosita tadbirkorlik sub'ektlari ishtirokida muhokama qildi.

Suhbat jarayonida ishchi guruh tomonidan tadbirkorlik sub'ektlariga qonun talablari to'g'risida atroflicha tushuntirishlar berib o'tildi. Aksariyat kamchiliklar muhokama jarayonining o'zida bartaraf etildi. Ayrimlariga muddat belgilanib, bir qator tavsiyalar berildi.

Farg'ona shahar hokimligi "uza.uz" saytiga davlat tili haqidagi qonun ijrosiga e'tibor bilan munosabatda bo'lganligi uchun minnatdorlik bildiradi.

F.Mamajonov,

Farg'ona shahar hokimining maslahatchisi

2020-07-09 09:40:30